SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (6-jild)
2026

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V6I4Y2026

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 4 (6) – 2026***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2026**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
6-jild, 4-son (aprel, 2026). - 368 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Махмудова Нигора Баротовна*
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА ..................... 10-15

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI ..................... 16-20

*Абдиев Рузикул Буронович*
ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ..................... 21-27

*Абдужаббаров Шерзод*
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА ..................... 28-33

*Boymurodov Shuxrat Toshkentovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RTA MAXSUS TA’LIM, SOHASIDA MA’NAVIY YANGILANISH ..................... 34-38

*Жураева Нафиса Олимовна*
ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ ..................... 39-45

*Safarov Akmal*
SUV XO‘JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ..................... 46-52

*Tursunova Mahliyo Sarvar qizi*
XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIY IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTGA TA’SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR) ..................... 53-57

*Mardiyeva Guzal Karimovna*
SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING OLIY TA’LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR ..................... 58-62

*Kenjayev Elyor Sattorovich*
YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA’NAVIY YUKSALISH UYG‘UNLIGI ..................... 63-70

*Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich*
QASHQADARYODAGI YETAKCHI O‘QUV DARGOHLARIDAN BIRI ..................... 71-79

*Mo‘minova Gavxar Esanovna*
O‘ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O‘RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O‘RNI ..................... 80-85

*Norboyev Sarvar Qahramon o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI ..................... 86-90

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI


*Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna*
DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY:
A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) ........................................ 91-100

*Xudoyorov Lochinbek Bahromovich*
OʻZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KOʻRSATKICHLARINING
DINAMIK TAHLILI ........................................................................................................................ 101-107

*Toxirov Akbarxon Toirxon oʻgʻli*
INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY
XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI .................. 108-113

*Ismoilov Bekzod Muxidinovich*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION
RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI ........................................................................ 114-118

*Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich*
OʻZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY
OQIBATLARI KELIB CHIQISHI ........................................................................................................ 119-135

*Nishonova Shaxnozaxon*
ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI
BOSHQARISH YONDASHUVLARI ...................................................................................................... 136-140

*Fayziyeva Aziza Azamat qizi*
SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK
KOʻRSATKICHLARIGA TAʼSIRI: ARIMA MODELI ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL ........... 141-154


## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI


*Ismoilov Maxamadixon Isroilovich*
IQTISODIY RATSIONALIZM:
TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR ......................................................... 155-165

*Beshimov Xamidjon Sayidovich*
OʻZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIY ADOLATNI
TAʼMINLASHDAGI AHAMIYATI .......................................................................................................... 166-175

*Obidov Asliddin Shavkatovich*
SAID AD-DIN AL-FARGʻONIY TAʼLIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR ....... 176-181

*Abduraxmov Xasan Ibroximovich*
KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUNʼIY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR
IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TAʼSIRI ........................................................................ 182-188

*Xolova Umida Umedovna*
“OʻRTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MAʼRIFAT KONSEPSIYASINING
TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MAʼRIFIY BOSQICHLAR TAHLILI” ...... 189-192

*Rajabova Rohila Zakirovna*
AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" ........ 193-197

*Kabulov Jahongir Bakhodirovich*
SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI .................................................................................. 198-202

*Eshkuvvatov Jaloliddin*
MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI .. 203-210

*Jomuradov Ikrom Ilxom o‘g‘li*
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI: FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG‘LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB TALQINLARI ........ 211-215

*Rustamova Madina*
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI: TAHDIDLAR VA OQIBATLAR ........ 216-220

*Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI ........ 221-225

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Isanova Feruza Tulqinovna*
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI ........ 226-232

*Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo*
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL ........ 233-241

*Quvvatova Shaxlo Choriyevna*
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU’LASI” ASARI TAHLILI ........ 242-246

*Elmuratova Zamira Xodjamuratovna*
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI ........ 247-251

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Shayzakov Shodiyor Ibragimovich*
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI ........ 252-261

*Umarova Xolisxon Nomoz qizi*
O‘ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 262-269

*Аминова Наргиза*
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ: МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ ........ 270-277

*Amirov Agzamxon Aktamovich*
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI ........ 278-283

*Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li*
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O‘RNI ........ 284-294

*Kabilov Sardor Asrolovich*
JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI ........ 295-300

*Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li*
ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH ........ 301-304

*Сабирова Куванчай Бабамуратовна*
ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ ........ 305-310

*Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna*
MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI ........ 311-318

*Majidov Islomjon Dilshod o'g'li*
YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI ........ 319-325

*Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li*
HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L........ 326-331

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna*
TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH ........ 332-337

*Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li*
SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION ........ 338-344

*Abdullayeva Surayyo Ashrafxanovna*
AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOIY ASOSLARI ........ 345-354

*G'affarova Dilfuza Shavkat qizi*
TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI........ 355-360

*Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich*
THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE........ 361-367

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 16 March 2026
**Accepted:** 01 April 2026
**Published:** 15 April 2026

*Article / Original Paper*

# APPROACHES TO PROJECT MANAGEMENT IN THE CONTEXT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM

**Nishonova Shakhnozakhon**
Basic Doctoral Researcher at Fergana State Technical University
E-mail: sh.nishonova@mail.ru

**Abstract.** The article analyzes regional and systemic approaches to investment project management within the framework of contemporary economic systems. The project management mechanism is considered as a set of elements and interpreted as an open system with integrative properties. The study emphasizes the importance of aligning investment objectives with regional development goals, establishing a multi-level mechanism with a strict hierarchy, and ensuring the participation of government authorities to enhance the efficiency of the investment process.

**Keywords:** investment projects, project management, regional development, systemic approach, investment process, integrative mechanism.

# ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI

**Nishonova Shaxnozaxon**
Farg'ona Davlat Texnika Universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiy tizim sharoitida investitsiyalarni loyiha asosida boshqarishning hududiy va tizimli yondashuvlari tahlil qilinadi. Loyihalarni boshqarish mexanizmi elementlar majmuasi sifatida koʻrib chiqiladi va integratsion xususiyatlarga ega ochiq tizim sifatida talqin etiladi.

**Kalit soʻzlar:** investitsion loyihalar, loyiha boshqaruvi, hududiy rivojlanish, tizimli yondashuv, investitsion jarayon, integratsion mexanizm.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N19

**Kirish.** Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish bosqichi investitsiyalarga boʻlgan talabning ortib borishi bilan tavsiflanib, bu holat investitsiya bozorining yanada faollashuviga hamda muayyan investitsion muhitning shakllanishiga olib kelmoqda. Bunday investitsion muhit investorlarni jalb etish jarayoniga sezilarli darajada ijobiy ta'sir koʻrsatadi va mintaqaning iqtisodiy siyosatida ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida namoyon boʻladi. Mintaqada barqaror va jozibador investitsion muhitni shakllantirish investitsiya jarayonlarini qoʻllab-quvvatlovchi hamda ularning samarali rivojlanishini ta'minlovchi mos institutsional va bozor muhitini yaratishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy investitsion muhitning shakllanishi, avvalo, davlat tomonidan investitsion sharoitlar va muhim omillarni rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar asosida amalga oshiriladi.

Boshqa tomondan, mintaqa investitsiya faoliyatining bevosita obyekti sifatida samarali investitsion muhitni shakllantirish uchun muhim iqtisodiy makon hisoblanadi. Chunki aynan mintaqa darajasida investitsiya jarayonlarini tashkil etishning ilgʻor yondashuvlari va

zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish imkoniyati mavjud boʻlib, ular loyiha boshqaruvi mexanizmi doirasida oʻzaro uygʻunlashgan holda tizimli ravishda integratsiyalashadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Hududiy yondashuvni hisobga olgan holda mintaqada investitsiyalarni loyiha asosida boshqarishning samarali mexanizmlari va shakllarini shakllantirish zarurati ilmiy adabiyotlarda ham alohida taʼkidlab oʻtiladi. Xususan, A.G. Granbergning fikricha, "turli fanlar va amaliy faoliyat sohalarida hududlarni ajratishning oʻziga xos tamoyillari qoʻllaniladi. Iqtisodiyot nuqtai nazaridan esa hududlarni maʼmuriy va iqtisodiy boshqaruv mezonlari asosida ajratish alohida ahamiyat kasb etadi" [1]. Mazkur yondashuv investitsiya jarayonini loyiha asosida boshqarish tizimini shakllantirishda hududiy davlat boshqaruvi organlarining rolini hisobga olish zarurligini koʻrsatadi. Chunki hududiy rivojlanish sharoitida investitsion jarayonlarni samarali tashkil etish koʻp jihatdan mahalliy boshqaruv institutlarining ishtiroki va ularning hududiy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari bilan bevosita bogʻliqdir.

Loyiha boshqaruvi yondashuvlarini shakllantirish jarayonida hududning oʻziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini ham inobatga olish muhim hisoblanadi. Jumladan, hududning geografik joylashuvi, shakllangan ishlab chiqarish tuzilmasi, mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslar, milliy xususiyatlar hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy mentaliteti hududiy iqtisodiy tizimning shakllanishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Ushbu omillar esa hududda mehnat va intellektual resurslar salohiyatining shakllanishi hamda investitsiya jarayonlarining rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda iqtisodiy rivojlanish darajasi markaziy hududlarga nisbatan past boʻlishi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki ishlab chiqarishning xomashyo va resurslarga qaramligi kabi omillar ham kuzatilishi mumkin. Bunday holatlarda hududiy iqtisodiyot yirik diversifikatsiyalashgan korporativ tuzilmalar taʼsiriga koʻproq duch keladi, bu esa oʻz navbatida hududda mehnatga haq toʻlash darajasi, bandlik, ijtimoiy kafolatlar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlarga taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi sharoitida ham hududiy rivojlanishning ushbu jihatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli hududiy loyiha boshqaruvi yondashuvlarini shakllantirish jarayonida hududning mamlakat iqtisodiy tizimidagi oʻrni, uning raqobatbardoshlik darajasi, mavjud tabiiy, hududiy, ishlab chiqarish hamda intellektual resurslari kompleks tarzda baholanishi zarur.

Mazkur omillarni hisobga olgan holda shakllantirilgan loyiha boshqaruvi mexanizmi hududiy investitsiya siyosatining ustuvor strategik yoʻnalishlarini qoʻllab-quvvatlashga xizmat qilishi, shuningdek hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va sohalarining kompleks hamda muvozanatli rivojlanishini taʼminlashga qaratilgan boʻlishi lozim.

Loyiha boshqaruvi yondashuvining boshqa jihatlarini R. Xayev oʻz ishida alohida taʼkidlagan [2]. Unda qayd etilishicha, investitsion loyihalash jarayoni nafaqat investor manfaatlari, balki loyihani amalga oshiruvchi recipient (qabul qiluvchi) manfaatlari nuqtai nazaridan ham amalga oshiriladi. Bu yondashuv investitsiyalarni loyiha asosida boshqarishni boshqa obyektlardan ajratib turadigan asosiy xususiyatlardan biri boʻlib, hududning investitsion loyihada ishtirokchisi sifatidagi roli va dolzarbligini yanada oshiradi. Hudud loyihaga sarmoya kirituvchi sifatida nafaqat resurslarni qabul qiladi, balki loyiha boshqaruvi natijalarini shakllantirish va uning sifatini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega.

Hududiy loyiha boshqaruvi yondashuvining yana bir muhim xususiyati shundaki, investitsion loyiha rentabelligiga qoʻyiladigan talablar investitsion jarayon risklari ortishi bilan oshadi. Ushbu risklar esa oʻz navbatida hududiy omillar taʼsirida shakllanadi. Mazkur yondashuvning dolzarbligi V.S. Shalkovning investitsion loyihalash mohiyatiga oid fikrlari bilan tasdiqlanadi. Unga koʻra, investitsion loyihalash — bu loyiha bilan bogʻliq barcha muhim jihatlar va xususiyatlarni tizimli oʻrganish hamda asosli investitsion qarorlar qabul qilish uchun maʼlumotlarni tayyorlash jarayonidir [3].

Oldingi fikrlarni rivojlantirgan I.I. Mazur oʻz ishida [4] investitsiyalarni loyiha asosida boshqarish yondashuvini loyihalarni boshqarishning usul va vositalari majmuasi sifatida, yaʼni investitsiyalarni boshqarish metodologiyasi shaklida taqdim etgan. I. Mazurning yondashuvida loyiha boshqaruvi investitsion jarayonning bosqichma-bosqich vazifalarini hal qilish sifatida koʻrsatiladi. Ushbu vazifalarga investitsiya bozorini tahlil qilish va investitsion portfelni shakllantirish; investitsiya samaradorligi va xavfini baholash; investitsion resurslarni shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish; loyihalarning investitsion jozibadorligini baholash; moliyaviy vositalarning investitsion ustunliklarini tahlil qilish; loyihalarni rejalashtirish va operativ boshqarish kiradi [4].




1-rasm. Investitsiyalarni loyiha asosida boshqarishning bosqichma-bosqich yondashuvi (I.I. Mazur modeli asosida)

Investitsiyalarni loyiha boshqaruvi tizimida amalga oshirishning oʻziga xos xususiyatlari mavjudligi aniq boʻlib, bu esa investitsiyalarni loyiha asosida boshqarish mexanizmini tashkil etishda alohida yondashuvni talab qiladi.

Investitsiyalarni tashkil etish mexanizmi loyiha boshqaruvining asosiy mazmunini tashkil etadi va uni investitsion resurslarni kiritish va taqsimlash jarayonlarini tizimli boshqarish jarayoni sifatida ochib beradi. Investitsiyalarni boshqarish mexanizmining mohiyati va uning turli jihatlarini aks ettiruvchi koʻplab tushunchalar mavjud boʻlib, ular loyiha boshqaruvining asosiy yondashuvi sifatida xizmat qiladi.

Oʻz ishida I. Blank investitsion menejment mexanizmini investitsion qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi elementlar tizimi sifatida taʼriflaydi [5]. I. Blank investitsion faoliyatni boshqarish mexanizmini tashkilot-iqtisodiy vositalar va usullar majmuasi sifatida tushunadi, ular orqali investitsion faoliyatga maqsadli taʼsir koʻrsatish va eng yaxshi natijalarga erishish taʼminlanadi.

Investitsiyalarni loyiha asosida boshqarish jarayonini tizimli nuqtai nazardan tasvirlash, bizning fikrimizcha, tizimli yondashuv mohiyatini aks ettiruvchi tizimli modelning turi va shakli aniq koʻrsatilmagan holda toʻliq boʻlmaydi. Shu bilan birga, bu tizimli modelni mintaqa darajasida loyiha boshqaruvini tasvirlash va shakllantirish uchun ishlatishning ahamiyati ortadi.

**Natijalar va muhokama.** Investitsion loyihalarni boshqarishni oʻzaro toʻgʻridan-toʻgʻri va teskari bogʻlanishlarga ega boʻlgan elementlar majmuasi sifatida qaralganda, u sinergik samaraga erishish va investitsion jarayon maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi yaxlit tizim sifatida namoyon boʻladi. Shu nuqtai nazardan, loyiha boshqaruvi elementlar guruhi yangi integratsion xususiyatlarga ega tizim sifatida talqin etilishi mumkin.

Mazkur xususiyatlar quyidagi asosiy xulosalarni keltirib chiqaradi: birinchidan, loyiha boshqaruvi elementlarining integratsiyalashgan xususiyati alohida komponentlarning oddiy yigʻindisidan iborat emas, balki ularning oʻzaro uygʻunlashuvi natijasida yuzaga keladi; ikkinchidan, bu integratsion xususiyat tizimdagi alohida elementlarning imkoniyatlaridan, ular qanchalik yuqori salohiyatga ega boʻlishidan qatʼi nazar, doimo ustun turadi.

Ushbu yondashuv loyiha boshqaruvini tizimli nuqtai nazardan koʻrib chiqish va uni ochiq tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Chunki bunday tizimning natijalari ichki doirada cheklanmaydi, balki uning elementlari tashqi muhit bilan doimiy oʻzaro aloqada boʻladi.

Loyiha boshqaruvi tizimi kasbiy malakaga ega subyektlar, ularning vositalari hamda investitsion loyihalarni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan faoliyatni oʻz ichiga olgan tashkiliy tuzilma sifatida ham talqin etiladi. U iqtisodiy makonda murakkab investitsion jarayonlarni amalga oshirib, investitsiya siklining vaqt parametrlarini belgilaydi.

Shu bilan birga, investitsion loyihalarni boshqarish maqsadlari hududiy rivojlanish maqsadlari bilan uygʻunlashgan holda shakllanishi lozim. Maqsadlarni belgilash jarayonida investitsion, iqtisodiy va hududiy manfaatlarni integratsiyalash vazifasi hal etiladi.

Hududiy darajada loyiha boshqaruvi tizimi koʻp darajali va iyerarxik mexanizm sifatida shakllanadi, bunda davlat boshqaruvi organlari ham faol ishtirok etadi. Ushbu tizimda asosiy (dominant) maqsad sifatida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi belgilanadi, qolgan barcha maqsadlar esa unga boʻysundirilgan holda amalga oshiriladi.

Natijada investitsion siyosatni kompleks tarzda tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Bunday yondashuv loyiha boshqaruvini tarmoq va hududiy darajalarda oʻzaro bogʻlangan biznes-jarayonlar tizimi sifatida koʻrib chiqish imkonini beradi. Shu orqali loyiha boshqaruvi turli darajadagi investitsion jarayonlarni qamrab oluvchi iyerarxik tuzilma sifatida shakllanadi.

Mazkur yondashuv investitsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishda differensial va maqsadli yondashuvni qoʻllash imkonini yaratadi hamda vertikal boshqaruv tizimini "murakkabdan soddaga" tamoyili asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Tahlil qilingan mulohazalardan kelib chiqib, shuni qayd etish mumkinki, zamonaviy iqtisodiy tizim sharoitida investitsiyalarni loyiha asosida boshqarishning samarali mexanizmi hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda shakllantirilishi lozim. Hududiy darajada loyiha boshqaruvi tizimining maqsadlari investitsion maqsadlar bilan bir qatorda hududiy rivojlanish ustuvorliklari bilan ham uygʻunlashtirilishi zarur.

Shu bilan birga, loyiha boshqaruvi tizimi turli tarmoqlar hamda hududiy iqtisodiyotning barcha darajalarini qamrab olgan holda, investitsion jarayonlarning kompleks va muvozanatli

rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada, investitsiyalarni loyiha asosida boshqarish mexanizmini shakllantirish jarayonida tizimli va hududiy yondashuvlarni integratsiya qilish, davlat boshqaruvi organlari ishtirokini ta'minlash hamda hudud manfaatlarini hisobga olgan holda maqsadlar iyerarxiyasini aniq belgilash hududiy iqtisodiy rivojlanish barqarorligini mustahkamlash va investitsion jarayonlar samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Гранберг, А.Г. Основы региональной экономики / А.Г. Гранберг - М.:ГУВШЭ, 2004. — 495с.
2. Хаев, Р.Х., Мальгин, В.А. и др. Инвестиции: оценка, моделирование, инвестиционная конкурентоспособность/ под ред. В.Г. Тимирясова. - Казань: Изд-во «Таглимат» 2002-160 с.
3. Шалков, В.С. Прединвестиционные исследования и разработки бизнес плана инвестиционного проекта / В.С. Шалков и др. - М.:ЗАО «Финстатинформ». 1999-248с.
4. Управление проектами / Под. Общ. ред. И.И. Мазура - 3-е издание -М.: Омега - Л, 2004-664 с.
5. Бланк, И. А. Основы инвестиционного менеджмента В 2-х т.Т.2 / И. А. Бланк. - 3-е изд.,стереотип. - М. : Омега-Л, 2008. - 560 с.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).